



Fransuz tilini o`rganishning zamonaviy usullari

Muzaffarova Nodira Mardonovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti Nemis tili
va adabiyoti kafedrası katta o`qituvchisi

Email: net44@list.ru

Yunusova Mohinur Soibjon qizi

Xorijiy tillari fakulteti talabasi Toshkent
davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Fransuz tilining xalqaro miqyosdagi o`rni beqiyos. Shu bilan birga Fransiya ham uzoq yillardan beri tashabbuskor va bilimli yoshlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida har yili ta`lim olishlari uchun ko`plab grandlar e`lon qilib keladi. Til o`rgangan kishilar uchun esa har doim imkoniyatlar eshigi ochiq. Ular doimo zamon bilan hamnafas holda yashashadi va tobora dunyoqarash va malakalarini oshirib boradi. Ushbu maqolada ham biz aynan Fransuz tilini o`rganish uchun foydali bo`luvchi eng zamonaviy usullar haqida so`z yuritamiz.

**Kalit so`zlar:** Fransuz tili, zamonaviy o`rganish usullari, Duolingo, sun'iy intellect, til o`rganish ilovalari, YouTube darslari, Podkastlar, til almashinuvi, immersiv metodlar, ChatGPT, O`zbek yoshlarining tilga qiziqishi, raqamli texnologiyalar, Fransiya ta`lim, onlayn ta`lim, talaffuzni o`rganish.



Abstract: The French language holds an exceptional position on the international stage. At the same time, France has long supported proactive and knowledgeable youth by annually offering numerous scholarships for education. For language learners, doors of opportunity are always open. They stay in tune with the times and continuously enhance their worldview and skills. In this article, we will discuss the most modern and effective methods for learning French.

Keywords: French language, modern learning methods, Duolingo, artificial intelligence, language learning apps, YouTube lessons, podcasts, language exchange, immersive methods, ChatGPT, Uzbek youth's interest in languages, digital technologies, education in France, online education, pronunciation learning.

Аннотация: Французский язык занимает особое место на международной арене. В то же время Франция на протяжении многих лет поддерживает инициативную и образованную молодежь, ежегодно предлагая множество грантов на обучение. Для изучающих язык всегда открыты двери возможностей. Они идут в ногу со временем и постоянно расширяют свой кругозор и совершенствуют навыки. В данной статье мы расскажем о самых современных и эффективных методах изучения французского языка.

Ключевые слова: французский язык, современные методы обучения, Duolingo, искусственный интеллект, приложения для изучения языков, уроки на YouTube, подкасты, языковой обмен, иммерсивные методы, ChatGPT, интерес узбекской молодежи к языкам, цифровые технологии, образование во Франции, онлайн-обучение, изучение произношения.



Kirish. Zamonaviy O'zbekistonimiz kundan kun rivojlanib bormoqda va undan ko'plab xorijiy tillarni o'rganishga ishtiyoqmand yoshlar yetishib chiqmoqda. Kundan kunga esa Fransuz tilini o'rganish maqsadi yoshlar orasida keng yoyilmoqda, chunki hozirgi kunda barcha zamonaviy kasblar ko'p tilli yosh kadrlarni talab qilmoqda. Bundan tashqari, Fransiya talim olish uchun borish istagidagilar son sanoqsiz. Ushbu xorijiy til shu kabi istakdagi yoshlarga cheksiz imkoniyat eshiklarini ochib beruvchi kalit bo'la oladi.

Asosiy qism. Albatta, o'z ona tilidan tubdan farq qiluvchi boshqa tilni o'rganish murakkab va u katta kuch va mehnat talab qiladi. Ammo biz zamonaviy texnologiyalar rivoji cho'qqiga chiqqan asrda yashayapmiz, bu esa qulay va oson imkoniyatlar mavjud degani.

Duolingo ilovasi bu borada yaxshi misol bo'la oladi — u o'zining mukammal tuzilishi bilan har joyda, jumladan, jamoat transportida ham foydalanish imkonini beradi. U orqali nafaqat so'z yodlash, balki talaffuz va tarjima ko'nikmalarini ham rivojlantirish mumkin.

YouTube darslari va podkastlar esa jonli ravishda mutaxassislar darslarini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, Tandem va HelloTalk kabi til almashinuvi dasturlari orqali interaktiv muloqot qilish mumkin.

Yana bir samarali yo'l — immersiv metodlar bo'lib, bu virtual suhbatlar, chatbotlar orqali muloqot qilish va mustaqil o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda esa eng ilg'or yordamchi – bu sun'iy intellekt. Xususan, ChatGPT orqali o'quvchilar til o'rganishda individual yondashuv va ovozli suhbat orqali talaffuzni ham mashq qilish imkoniga egalar.



Natija. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy texnologiyalar va usullar yoshlar uchun til o‘rganishni oson, qiziqarli va interaktiv qiladi. Har bir metod o‘ziga xos afzalliklarga ega bo‘lib, ular yordamida yoshlar mustaqil ravishda ham o‘z ustida ishlay oladilar.

Xulosa. Fransuz tili dunyodagi eng chiroyli tillardan biri hisoblanadi. Uni o‘rganish istagida bo‘lgan yoshlar zamonaviy metodlardan samarali foydalansalar, nafaqat tilni, balki global imkoniyatlar eshigini ham ochadilar. Yoshlar har doim izlanishda, harakatda bo‘lishi, yangi texnologiyalarni qo‘llashdan tortinmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.A.Yangiboyev. Fransuz tili va boshqa chet tillarni o‘qitish va o‘rganishning zamonaviy usullari.
2. Qalandarova Ro‘zaxon Fayzulla qizi. Fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish.
3. Scientific approach to the modern education system - international scientific online conferences (11.02.2024)